

TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA BILIM VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Yo'lchiyev Mash'albek Erkinovich

Andijon mashinasozlik instituti,
Muqobil energiya manbalari kafedrasи (PhD)
e-mail: new_phd_mas'halbek@mail.ru
+998901610017

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lrim sifatini yangi bosqichga ko'tarish talabalarni zamon talabi darajasida bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyaga yega bo'lishi, o'quvchilarning fan doirasida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy yondoshuvlarni o'rni asoslangan. Tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ yondoshuvning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, integratsiya, kommunikatsiya, texnologiya, elektron ta'lrim, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, samaradorlik, moslashuvchanlik, yutuqlilik, muvaffaqiyatlilik, tushunuvchanlik, "natjalilik, uquvlilik, xocca, xususiyat, sifat, miqdor.

Ta'lrim jarayonini samarali tashkil qilish uchun pedagogik va axborot texnologiyalaridan uzviy, integrativ asosda foydalanish bugungi kun talabidir. Buning zamonaviy rivojlangan jamiyatga ilmli, ma'naviyatli, barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan, respublikamiz kelajagi uchun qayg'uradigan intellektual yetuk avlodni tarbiyalash zarur. Ta'lrim tizimidagi bugungi ijtimoiy talablar axborotlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Maktab ta'lmini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lrim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limi amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni tezkor izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lrim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mohiyatan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon qila olishni anglatadi.

Talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lrim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'limi islohotlarning samarasini bиринчи navbatda o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z

hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchida tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim va zarurdir. Integrativ yondoshuv umumiyligi o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch yelementi (triada) – "Bilim – Ko'nikma – Malaka oltita birlik(sekstet) – "Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi. Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, ularni yetuk rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularning dunyoning birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiyligi qonunlari asosida yo'lga solish, ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalarini yukori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar texnologiya fanini o'qitish jarayoniga xalkaro tajribalarni samarali tatbiq etish, o'kuvchilarning intellektual kobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirdi. Uzbekiston Respublikasi xalk ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini boskichma-boskich tatbiq etish, xalk ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish»¹ yazifalari belgilangan. Bu borada o'quvchilarda tayanch va fanga doir kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy asoslarini aniqlashtirish, integrativ yondashuvga asoslangan texnologiya fanini o'qitishning «kompyuterli ta'lim metodi»ni ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini takomillashtirish, xususiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini ishlab chikish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muxim axamiyat kasb etadi. Ta'limdagagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi. O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning konseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlarini integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

Shu ma'noda integratsiya – fanlarning differensiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. Ilmiy tahlil va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ukuvchilarning tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarini rivojlantirish soxasida nazariy va amaliy axamiyatga

ega ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bulsada, texnologiya fanini ukitishda elektron ta'lif resursidan foydalangan xolda integrativ yondashuv asosida ukuvchilarning tayanch va fanga doir xususiy komp "Competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, "musobaqalashishga layoqatlilik" degan ma'noni ifodalaydi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda keltirilishicha, kompetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajmi, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'nosи, ham mantiqiy mazmuni jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati, shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaqqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xocca", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmokda. "Kompetentlik", "kompetensiya" tushunchalarining tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi: bilimlar majmuining amalda qo'llanishi; shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari; amaliy faoliyatga tayyorlik darjasи; muammolarni hal qilish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati; shaxsning kasbiy faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi; faollandashgan (amaliyotga tatbiq qilingan) uquv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadga yo'naltirilgan emotsiyonal iroda kuchi.

Jahon ta'lif amaliyotida "kompetentlik" tushunchasi o'zida ta'lifning intellektual va malakaviy tarkibini birlashtirish, ta'lif mazmunini interpretatsiyalash g'oyasini qamrab olish bilan birga madaniyat va faoliyat sohalaridagi keng qamrovli (axborot, huquqiy va h.k.) qator ko'nikma va malakalarni integratsiyalash tabiatiga ega Kompetensiya - fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetensiyalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ta'lif - o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lmdir Shunday qilib, zamonaviy ta'lif amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv yuzaga keldi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan texnologiya fanning asosiy mohiyati fan doirasida tashkil etilgan o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi

Kompetensiya shakllantirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi.

Kompetensiyalar o'z ahamiyatiga ko'ra farqlanadi:

1. Tayanch kompetensiyalar- ta'larning umumiyligiga aloqador kompetensiyalar.
2. Umumpredmetli kompetensiyalar - o'quv fanlari va ta'limga sohasining ma'lum sohasiga aloqador kompetensiyalar.
3. Fanga oid kompetensiyalar aniq tavsifga va o'quv fani doirasida shakllantirish imkoniyatiga ega va yuqoridagi ikki kompetensiya darajasiga alohida munosabatni ifodalaydi

O'quvchilar kelgusi hayotiy faoliyati davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarni hal qilishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallagan bo'lishi lozim. O'quvchi shaxsining umumiyligini rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya faqat bitta o'quv fani (masalan, texnologiya o'quv fani) doirasida shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Bizningcha, o'quvchining texnologiya faniga oid kompetensiysi -shu fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Texnologiya fani darsi jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish imkonini beradi Texnologiya fani darsi jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

- 1.Игамбердиев, А. У., & ўғли Бурхонов, З. А. (2022). Ерларга ишлов беришда қўлланиладиган комбинациялашган агрегат ва унинг афзалликлари. *Science and Education*, 3(7), 66-71.
2. Игамбердиев, У. Р., Хакимов, Н. О., & Игамбердиев, А. У. (2014). Определение мощности фрезерного культиватора с вертикальной осью вращения для обработки посевов хлопчатника. *Российский электронный научный журнал*, (7), 5-12.
- 3.Игамбердиев, А. У. (2023). ТУПРОҚҚА ИШЛОВ БЕРУВЧИ КОМБИНАЦИЯЛАШГАН АГРЕГАТНИНГ ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНИ. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1502-1508.
URL: <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/516>
4. Худойбердиев, Т. С., Игамбердиев, А., Мурадав, Р., & Мирабдуллаев, Ш. ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ НОЖА СОШНИКА СЕЯЛКИ

JUSTIFICATION OF PARAMETERS OF THE SEEDER'S BENCHMAN KNIFE.
ББК 65.2 C56, 125.

5. Худойбердиев, Т. С., Игамбердиев, А., Мурадав, Р., & Мирабдуллаев, Ш. ОБОСНОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ПАРАМЕТРОВ СОШНИКА ДЛЯ ПОСЕВА СЕМЯН ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В МЕЖДУРЯДЬЯ ХЛОПЧАТНИКА JUSTIFICATION OF TECHNOLOGICAL AND CONSTRUCTIVE PARAMETERS OF BEAUTY FOR CROPS OF SEEDS OF WINTER WHEAT. ББК 65.2 C56, 129.

